

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

**ISLOM FALSAFASIDA INTELLEKTUAL FAOLIYAT MEZONLARIGA DOIR
QARASHLAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА КРИТЕРИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ**

**ANALYSIS OF VIEWS ON THE CRITERIA OF INTELLECTUAL ACTIVITY IN ISLAMIC
PHILOSOPHY**

Qoraboeva Moxidil Shukurjon qizi¹

¹Qoraboeva Moxidil Shukurjon qizi

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada islom falsafasining vujudga kelishi, bosqichlari, undagi gnoseologik muammolarning ratsional yechimlariga doir qarashlar, ilmiy va intellektual faoliyat mezonlari, uning aksiologik va gumanistik mohiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется становление исламской философии, ее этапы, взгляды на рациональные решения проблем гносеологии, критерии научной и интеллектуальной деятельности, ее аксиологическая и гуманистическая сущность.

Abstract

The article analyzes the emergence of Islamic philosophy, its stages, views on rational solutions to the problems of gnoseology, the criteria of scientific and intellectual activity, its axiological and humanistic essence.

Kalit so'zlar: *islom, islom falsafasi, islom madaniyati, din, fan, falsafa, ilm, intellekt, ilmiy faoliyat, intellektual qadriyat.*

Ключевые слова: *ислам, исламская философия, исламская культура, религия, наука, философия, наука, интеллект, научная деятельность, духовная ценность.*

Key words: *Islam, Islamic Philosophy, Islamic culture, religion, science, philosophy, science, intellect, scientific activity, spiritual value.*

KIRISH

Hozirgi zamon eron faylasufi Muhammad Xotamiy o'zining "Islom tafakkuri tarixidan" asarida Islom falsafasi o'z tarkibiga besh yo'nalishni qamrab olishini bayon qiladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar. Bularga u quyidagicha ta'rif beradi: "Amalda musulmon jamiyatining ratsional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to'rtta tamoyil (yo'nalish)ni ko'rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg'unlik munosabatlarini oliy darajada qo'yg'an oqim.

2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko'radigan oqim.

3. Aql va falsafaning qo'li qisqa, oyog'i cho'loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, degan irfon va tasavvuf oqimi. Sufiyilar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deydilar va dalil keltirib isbotlovchilarning oyog'i yog'ochdandir, ular haqqa yetishishga ojiz, deb aytadilar.

4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta'kidlovchi oqim"[1,58]. Demak, uning ta'rifidan islom falsafasini din va falsafaning oltin o'rtalig'iva mushtarakligi ekanligini anglashimiz umkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Islom falsafasining asoslari bo'lgan kalom ilmining hamda tasavvufning rivojlanishida o'ziga xos intellektual odimlash juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va undan foydalanish natijasida musulmon madaniyatida turli oqimlarning paydo bo'lishi va ular o'rtasida g'oyaviy hamda siyosiy kurashlarga olib kelgan. Ma'lumki, islomning keng tarqalishi katta hududlarda ilgari mavjud huquqiy me'yorlarning islomlashtirilishini taqozo etdi. Islomning yangi hududlarga yoyilishi bilan u yoki bu tarzda yangi diniy e'tiqodlar, yangi madaniyatlar, odatlarga duch kelindi. Islom dinning yoyilishi uni boshqa dinlar bilan to'qnashishga olib keldi. Bu hol, o'zi bilan birga yangi masalalar,

talablarni yuzaga chiqardi. Musulmonlar yangi siyosiy tizimga asoslangan o'z hokimiyatlarini yoyar ekanlar, turli odatlar va an'analarga ega xalqlar bilan murakkab munosabatlarga kirishdilar. Ular qarshisida islomga yangi xalqlarning kirishi orqali yuzaga kelgan muammolar ko'ndalang bo'la boshladi. Madaniyati yuksakroq bo'lgan xalqlarning mantiqiy savollariga qoniqarli javob topish, o'z dinlarining boshqa dinlardan afzalligini ko'rsatishda muqaddas kitoblar bilan kifoyalanibgina qolmay, shu bilan birga, mantiqiy jihatdan isbot qilish hayot-mamot masalasiga aylandi. Bu, o'z navbatida, yangi g'oya va yo'llarning paydo bo'lishiga olib kelishi ravshan edi. Ikkinchi tomondan esa, mavjud siyosiy tuzum ichidagi beqarorlikni bartaraf etish, musulmonlarning turli firqalarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarurati ulamolarni yangi izlanishlarga majbur qildi. Ushbu omillar islomning fikrlovchi doiralarida kalom bahslarining paydo bo'lishiga zamin tayyorladi. Baxs yuritishning o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Bunday «hujum-himoya» ko'rinishidagi bahs usuli, yahudiylar, xristianlar va moniyalar o'rtasida qadimdan davom etib kelayotgan munozaralarning eng ommaviysi edi. Islomda «Kalom» yo'nalishiga asos bo'lgan bunday bahslarni olib boruvchilarga nisbatan «mutakallimin», ya'ni «so'zlashuvchilar» atamasi qo'llanila boshladi. Bu bahslar turli guruhlarning jizzaki va chapani olishuvlari shaklidan madaniy munozaraga, ko'pgina hollarda yozma bahslar (risolalar) shakliga o'tishi, shariat himoyasiga xizmat qilishi lozim edi.

Kalom, shu tariqa, o'z taraqqiyoti davomida shariat ilmining tarkibiy qismiga aylandi. Bunda Abu al-Hasan Ash'ariyning xizmati alohida diqqatga sazovordir. Shar'iy asosdagi «Kalom» yo'nalishi to'lig'icha uning va Abu Mansur Moturidiyning ta'limotlaridan boshlanadi. Islomda ularga zid ta'limotni targ'ib etgan barcha teologik va falsafiy-mantiqiy yo'nalishdagi qarashlar bid'at deb e'lon qilingan. Ibn Xaldunning: «Kalom bor-yo'g'i bid'atlarga raddiya sifatida paydo bo'lgan. U shunday ilmki, mantiqiy dalillarga asoslangan bahs yuritish orqali din asoslarini himoya qiladi va islomiyatdan adashgan bid'atchilarni qoralaydi» deb bergan ta'rifi kalomning ash'ariy va moturidiylardan boshlangan ana shu – kalom ilmi taraqqiyotining yangi bosqichiga tegishli ekanligini unutmazlik kerak. Shuni eslatib o'tish joizki, islomning ilmiy va ma'rifiy doiralarida shariat haqidagi ilm dastlabki shakllangan shoxobcha bo'lsa, hadisshunoslik, tarix, adabiyot, ko'p hollarda, shariat va fiqhga ilova edi[1,45-46]. Shunday ekan, islom falsafasining ratsional faoliyat bilan uyg'unlashuvi, intellektual qadriyatlarining qadrlanishi bilan uning sayqallanishi, takomillashuvi jarayoni ham tezlashib bordi. Bu esa islom falsafasining ta'sirida Sharq Renesansini yuzaga kelishiga olib keldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Musulmon madaniyati doirasida keyinchalik vujudga kelgan “sof” falsafa asosida aqlga, shaxsiy fikrga tayanish, mustaqil fikr yuritish, mantiq va intellektual faoliyat yotadi. Musulmon madaniyati doirasida vujudga kelgan falsafa fani ratsionalizm, falsafiy mushohada vositasida orttirilgan bilim bo'lib, uning asosiy manbasi yangicha anglangan va talqin etilgan Qadimgi Yunon falsafasi asosida shakllandi. Faylasuflar, ayniqsa Abu Nasr Forobiy falsafiy tizimida, din va falsafa, bilim va imon uyg'unligini, sintezini yaratishga intilganlar. Aslida, bu masala yuzasidan Sharq (ayniqsa arab mamlakatlari) va G'arb sharqshunos va faylasuflari ko'p munozaralar olib borganlar. Ular turli pozitsiyada turganlariga qaramasdan, musulmon falsafasi “imon va aqlni kelishtirish” (O.Amin), “imon va aqlni yarashtirish”ga (A.Arberi) harakat qilgan yoki “diniy dunyoqarash strukturasi kelib chiqqan holda, borliqning ratsional suratini yaratishga intilgan” (M. Faxri), degan deyarli bir hil xulosaga kelganlar. Bu jarayon keyinchalik o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ham kuzatiladi. Shunday qilib, asosini islom dini tashkil etgan jamiyatda shakllangan falsafa yoxud musulmon falsafasi tarkibiga barcha u yoki bu darajada ratsionalizmga tayangan ilmlarni kiritish mumkin. Demak musulmon falsafasi asosini kalom, falsafa va tasavvufni kiritish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Zero, “Islom ilohiyotiga doir adabiyotlarning tahlili islomning tugallangan diniy tizim sifatidagi shakllanishi jarayoni Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Kavkaz orti hududlari istilo qilinganidan so'ng amalga oshadi. IX-XI asrlarda Qur'onning talqini, hadislarni to'plash, shariat qonunlarini ishlab chiqish jarayonlari shaharlarda amalga oshiriladi (Eron - Hamadon, Nishopur, Mashhad, Afg'onistonda – Balx, Hirot, O'rta Osiyoda – Buxoro, Samarqand, Termiz, Marv kabi shaharlarda)”[2,24]. Shu bilan birga “Islomga kirgan yangi mintaqalarda, jumladan Movarounnahrda ilohiyot bilan bog'liq masalalar keskin tus oldi. Chunki mazkur hududdagi turk yoki sug'diy elatlar islom ahkomlari va talablariga rioya qilishga tayyor emas edi. Bu esa, oxir oqibatda, bir qator isyonlarga ham olib keldi. Bular Movarounnahrda mustaqil ilohiyot

an'analarning vujudga kelishi uchun zamini tayyorladi"[3,203]. Markaziy Osiyolik mutafakkir va allomalar musulmon falsafasini yaratishda faol qatnashdilar va unga katta hissa qo'shdilar. Ismoil Buxoriy va at-Termiziylar mashhur hadis to'plamlarini yaratib, o'z davrining eng nufuzli hadisshunosi hisoblanganlar, Burhoniddin Marg'inoniy mashhur shariat kitobi "Hidoya"ni yaratdi va Abu Lays Samarqandiy bilan bir qatorda obro'li mufaqih bo'lganlar, az-Zamaxshariy va al-Moturidiylar kalom ilmining buyuk namoyandalari bo'lganlar, Xorazmiy, Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar falsafa va fan rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. Bu ma'lumotlar mamlakatimizda barchaga va musulmon madaniyatini tadqiq etuvchi chet mamlakatlar olimlariga ma'lum, buning ustiga ular musulmon mutafakkirlar o'z tadqiqotlarida ko'rilayotgan masalalarga chuqur kirib borganligi va qarashlarining kengligidan hayratlanadilar.

Islom dunyosida yuzaga kelgan ilmiy va intellektual faoliyat o'ziga xos fenomen bo'lib, muammolar doirasini taqdim etishda o'z usuli hamda masalalarini hal etishning chegaralari va to'g'riligiga asoslanib, ularni o'rta qo'yishning mumkin bo'lgan o'ziga xos mezonlari borligi bilan tavsiflanadi. Bunda asosan musulmon falsafasining barcha yo'nalishlari uchun umumiy bo'lgan va undagi munozaralar mavzusi bo'lib hisoblangan muammolar majmui shakllandi. U o'z ichiga metafizika (ilk, boshlang'ich asos va uning ko'p dunyolarga munosabati, mavjudlik-nomavjudlik modullari va ular o'rtasidagi munosabat, sabablilik), bilish nazariyasi (bilish shakllari, hissiy, aqliy va intuitiv bilish), inson haqidagi ta'limot (inson harakat va bilish qobiliyatiga ega bo'lgan mavjudot sifatida, insonning dunyo va ilk negizga (boshlang'ich asosga) amaliy-bilish tarzidagi munosabati) va h.k. masalalarni qamrab oladi. Ushbu muammolar doirasidan kelib chiqib, musulmon falsafasida bu davrlarda faoliyat yuritgan besh asosiy yo'nalish va maktab: kalom, peripatetizmga asoslangan musulmon falsafasi, tasavvuf, ismoiliylik, ishroqiylik falsafiy ta'limotlarini sanab o'tish mumkin"[4,18]. Ularning izlanishlari va harakatlari bila go'zal islom ilmi yuzaga keldi va ilmiy an'analar shakllandi, intellektual faoliyatda esa arab-musulmon metodologiyasi yaratildi.

Agar musulmon falsafasi rivojining ushbu takomil bosqichlarni haqiqatga yaqin deb tan oladigan bo'lsak, undan uning birinchi bosqichida, ya'ni Abbosiylar sulolasi hukmronligi davrida nafaqat tarjimonlik harakatining, balki islom arkonlariga asoslangan xalifalik, umuman musulmon tsivilizatsiyasining o'sha davrda dolzarb muammosi bo'lgan, islom dinini mustahkamlash va har qanday tanqid va tahdidlarga bardosh beradigan qilib qo'yish bilan bog'liq harakatlarni, ya'ni ilohiyot doirasida nazariy, g'oyaviy izlanishlarni qo'yish lozim. Chunki aynan ushbu muammoni hal etish jarayonida "birlamchi" yoki "ilk fanlar" (hadisshunoslik, fiqh va keyinchalik kalom ilmi) vujudga keladi va ularda aqlga tayanish, ya'ni ratsionalizm rivojlantiriladi, yangi balandroq mavqega ko'tariladi.

Shu bilan birga, ushbu masalaga doir chet ellik tadqiqotchilari asarlarida masalani yoritishga yordam qilishi mumkin bo'lgan yondashuvlar mavjud. Masalan, S.M.Xotamiy: "islom tsivilizatsiyasining g'oyaviy-tafakkuriy taraqqiyoti bir-biri bilan muqobil bo'lgan uchta muhim oqim ta'sirida davom etadi, ularni shartli ravishda "tosharo" ("shariat" so'zidan olingan – *tarj.*), tasavvuf va ratsionalizm deb nomlash mumkin. Ta'kidlash joizki, - deb yozadi muallif, - "tosharo" istilohi bizning kontekstda dinning zohiriy (ya'ni asliga mos, lekin shu bilan bir vaqtda din aqidalarini yuzaki tushunish) tomoniga va ikkinchi darajali aqidalarga rioya qilishni anglatadi, tasavvuf esa irfon ma'nosidagi ilmni bildiradi, qaysiki "murshid va murid" orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi, intellektual faoliyat esa, bu - dunyoni falsafiy mushohadalar orqali bilish bo'lib, islom dunyosida asosan, Yunon va Iskandariya olimlarining risolalari orqali shakllandi"[1,45-46]. Demak, islom intellektual uyg'onishi va rivoji irfon ilmining hosilasida va bilishga keng imkoniyatning yaratilishi, barcha cheklovlarni olib tashlanishi bilan ham bog'liqligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, S.M.Xotamiy ilk islom madaniyati rivojlanishida mavjud bo'lgan uch g'oyaviy yo'nalishni ajratadi: "tosharo" – keng ommaga tushunarli bo'lgan, bir qancha yuksak ma'rifatli kishilar bu oqim tarafdori bo'lgani bilan, asosan ommaning qo'llab-quvvatlanishiga tayanib kelgan. Ularni muallif "zohirbin shariat ahli" deb nomlaydi, demak, ularning ichiga, musulmon aqidaparastlari, an'anaviy chilari ham kirib ketadi. Bu yo'nalishning ichida sof intellekt kuchidan foydalangan mutafakkirlar ko'p bo'lgan (mo'taziliylar, al-Ash'ariy ta'limoti, umuman kalom ilmi namoyandalari), lekin "zohirbin shariat ahli", ya'ni xalq ommasi ratsional mushohadalarni qabul qilmaganligi sababli, ular (ya'ni xalq ommasi-shariat ahli va bu yo'nalish tarafdorlari bo'lgan mutafakkirlar) o'rtasida to'qnashuvlar ham sodir bo'lgan.

Abdurauf Fitrat o'zining "Najot yo'li" asarida bu xususda quyidagicha fikr bildirgan: hijriy 100 yilgacha mo'taziliylar nazariyasi mantiqiy isbot va muammolarni atroflicha tushuntirishlarga tayangan, ya'ni ular aqlni ishga soldilar. Keyinchalik hijriy 300 yilga kelib shayx Abulhasan Ash'ariy sunnat aqidalarini mudofaa va muhofaza qilish uchun kalom ilmiga asos soldi va uni ilmiy muomalaga kiritdi. Keyingi islom ulamolari kalom ilmiga Yunon falsafasi usul va tushunchalarini kiritdilar. Aynan shu jihatiga ko'ra kalom ilmi keyinchalik bahstlab bo'lib qoldi[5,46-48]. Darhaqiqat, kalomchilar va mo'taziliylar bahsi bir tomondan aniqlik va asllik baxsi bo'lsa, boshqa tomondan mukammalik talab etuvchilar bahsiga aylandi. Ya'ni ular o'rtasidagi o'zaro kurashlar islom falsafasini yuksaltirdi, mukammallashtirdi.

Taniqli faraning faylasufi, sayyohatchi, arxeolog, tabib va ijtimoiy ruhshunoslik asoschisi "Gyustav Lebon o'zining "Arablar madaniyati" nomli kitobida jumladan quyidagi fikrlarni bildirgan: Ispaniyani zabt etgandan so'ng, butun Ko'hna Olamni(Evropa)ni Qur'onga bo'ysundirmoqchi edi. Ushbu tadbirni amalga oshirganda unga Damashqqa qaytib kelishni buyurgan xalifa halal berdi. Barchasi boshqacha bo'lishi mumkin edi: butun Yevropa Muhammadning diniga kirar va barcha madaniyatli xalqlarning diniy birligi tarkib topar edi. Bu esa, ehtimol, butun Yevropaga, arablar tufayli ba'zi davlatlarga noma'lum bo'lgan, o'rta asrlar davrini chetlab o'tish imkonini berar edi"[6,44]. Demak, islomning ilmga rag'bat va insonparvar asosi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega va yuksak darajada qadrlanmoqda.

Musulmon madaniyatida peripatetizmga asoslangan falsafaning paydo bo'lishi tufayli intellektga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Shu bilan birga shariat va falsafa hamda tasavvuf va falsafa orasida kuchli ziddiyat vujudga keladi. Tasavvufning falsafaga qarshi kurashi tasavvuf doirasida "nazariy irfonning" va Ibn al-Arabiyning buyuk diniy-falsafiy ta'limotining yaratilishiga olib keldi. Demak shuni ta'kidlash lozimki, ilk musulmon madaniyatida intellektual faoliyat "sof" falsafa fanining vujudga kelishidan avval ham o'ziga xos shaklda mavjud bo'lgan. Lekin "tosharo", ya'ni shariat ahli va tasavvufning falsafa bilan bo'lgan to'qnashuvlari natijasida ham shariat, ham tasavvuf sohalaridagi intellektual faoliyat yangi, balandroq mavqega ko'tariladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, musulmon madaniyatining ma'naviy sohasida uch muhim oqim: an'anaviy shariat ahli yoki an'anaviychilar – ular islom aqidalariga va intellektual quvvatga tayangan bo'lsada, shu bilan bir vaqtda islom ta'limotining mutloq aqliy faoliyatga aylanib ketishiga qarshi kurashgan; tasavvuf – avvaliga intellektual faoliyatga qarshi chiqdi, lekin buning natijasida o'zi ham intellektual ilmga aylandi; va, nihoyat, "sof" intellektual faoliyat, ya'ni falsafa – aqliy faoliyatning oliy bosqichi bo'lgan, deb aytish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. –Toshkent.: Minhoj, 2003.
2. Usmanov M.A. Rasprostranenie islama i yego rol' v istorii Sredney Azii // Iz istorii obshchestvenno-filosofskoy mysli i vol'nodumiya v Sredney Azii.- Tashkent.: Fan, 1991.
3. Ziyodov Sh.Yu. Abu Mansur al-Moturidiy kalom ta'limotining sharq falsafasi rivojiga qo'shgan hissasi // O'zbekistonning islom tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi.- Toshkent-Samarqand, 2007.
4. Sayidahmedova A.S. Islom falsafasida gnoseologik masalalar talqini (kalom ilmi vakillarining qarashlari asosida). F.f.n. ... diss. avtoref.- Toshkent.: Toshkent islom universiteti, 2009.
5. Fitrat A. Najot yo'li.- Toshkent.: Sharq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.
6. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. –Toshkent.: "HILOL-NASHR" nashriyoti. 2019.